

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI IJARASI BILAN BOG'LIQ MUOMALALAR HISOBINI MAQSADI VA TASHKIL ETISH TARTIBI

Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna

AndMI "Buxgalteriya hisobi va menejment" kafedراسي katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Asilbek

AndMI "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada mualliflar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalarning ahamiyati, roli. Asosiy vositalarni ijaraga berish va olish bilan bog'liq muomalalarni hisobini tashkil etishning maqsadi va tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. buxgalteriya hisobi, asosiy vositalar, ijara, hisob siyosati, ijaraga oluvchi, ijaraga beruvchi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda asosiy vositalarning dani nixoyatda kattadir. Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida juda katta rol o'ynaydi, chunki ular barcha korxonaga tayanadigan va korxonaning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezonini bo'lgan ishlab-chiqarish texnika bazasini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jarayonida asosiy vositalar hisobi va auditini isloh qilish respublikamizda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, xalqaro standartlar doirasida tashkil etish va yuritishni talab etadi. Asosiy vositalar hisobini yuritishda, avvalo, hisob yuritish siyosatiga amal qilish lozim. "Hisob yuritish siyosati" deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt raxbarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tamoyil va me'yoriy qoidalarga mos ravishda yuritish va tuzish uchun qo'llaniladigan usullar majmui tushuniladi.

Korxonadagi asosiy vositalar o'ziniki, ijaraga va ijara shartnomasi asosida olingan bo'lishi mumkin. Ijara oluvchi va ijara beruvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Fuqarolik Kodeksi, Ijara to'g'risidagi qonun va boshqa tegishli huquqiy - me'yoriy xujjatlar talablariga rioya qilingan holda, yozma ravishda tuzilgan ijara shartnomasiga muvofiq tartibga solib turiladi.

Ijara faoliyati o'zida ishlab chiqarishni kreditlash va investitsion faoliyat o'rtasidagi o'ziga xos bir shaklni namoyon etadi. Ijara to'lovlari odatda ijaraga beruvchiga qo'yilgan kapitalga o'rnatilgan o'rtacha me'yordan kam bo'lmagan foyda olish imkoniyatini ta'minlaydi, ijarachi uchun esa bir vaqtning o'zida yirik miqdorda pul mablag'larini chiqib ketishini amalga oshirmagan holda qimmatbahoda turuvchi mulklardan foydalanish va ijaraga olingan mulkdan foydalanish natijasida foyda

olingandan keyin ijara to'lovlarini to'lash imkoniyatlari yo'zaga keladi.

Ijara asosan aylanma mablag'lar yetishmasligi yo'zaga kelgan korxonalar uchun foydali hisoblanadi. Bunda ular o'zlarining asosiy vositalarini yangilay olmaydilar, fan-texnika tarakkiyoti natijalarini joriy qila olmaydilar va o'z navbatida ularni kreditlovchi tashkilotlarga qaram qilib qo'yadigan kreditlar olishga majburlar. Ijara sharoitida asosiy vositalarni olish korxonalariga ularni qarz mablag'lari hisobiga olganga qaraganda ko'prok mablag'larni iqtisod qilish imkoniyatlarini beradi.

Kichik va o'rta biznes asosidagi korxonalar, firmalar uchun ijara qisman yagona moliyalashtirish imkoniyati bo'lib hisoblanadi.

Ijara ob'ekti bo'lib, iste'mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan xar qanday ashyolar bo'lishi mumkin, yer uchastkalari va boshqa tabiat ob'ektlari bundan mustasno.

Mulk ko'rinishlari ishlab chiqarish asosiy vositalari (bino, inshootlar, o'tkazish ko'rilmalari, umumishlab chiqarish ahamiyatidagi uskuna va mashinalar, aviatsiya mahsulotlari, qishloq xo'jaligi texnikasi, orgtexnika, asboblar, mashina- ko'rilishning boshqa mahsulotlari) hamda mulkiy majmua (korxonalar, tsekh, texnologik liniyalar) holida bo'lishi mumkin, lekin bunda ular aylanma mablag'lar (xom-ashyo, materiallar, mahsulotlar) siz ekanligini izoxlash zarur. Shuni ta'kidlash joizki, ijara ob'ekti bo'lib - yangi, oldin foydalanishda bo'lmagan mulk va oldin foydalanishda bo'lgan ya'ni ishlab chiqarish vositalarining ikkilamchi bozorida muomalada bo'lgan mulk sifatida ham namoyon bo'lishini nazarda tutilishi lozim. Agar, ijara ob'ekti ko'chmas mulk (bino, inshoot, korxonalar va tsekh) bo'lsa, ijara shartnomasida ijaraga oluvchiga ko'chmas mulk band qilgan o'sha yerdan foydalanish huquqi ham berilishi ko'zda tutiladi. Negaki mulkdan foydalanishda bu masala dolzarb hisoblanadi.

Ijara sub'ektlari bo'lib, ijara shartnomasidagi tomonlar - ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi hisoblanadi.

Ijara mahsuloti (texnika, sanoat qurollari, asbob-uskunalar) yetkazib beruvchilarga savdo xajmini kengaytirishga keng imkoniyat yaratadi. Buning natijasida, keyinchalik, doimiy ravishda extiyot kislmlarni ham yetkazib berish va xom-ashyo materiallari, remont va kadrlar tayyorlashni ham amalga oshirish mumkin bo'ladi. Moliyaviy ijara biznesida qatnashuvchi tomonlar, ya'ni investorlar sifatida ishlab chiqarishga ijara orqali mablag'larni jalb qiluvchilar ham ijaraning ustunligini sotuvchilardan kam xis qilishmaydi ya'ni ulardan kam manfaat olmaydilar. Shunday qatnashchilardan institutsional va xususiy investorlar hamda bevosita ijaraga beruvchilarni keltirish mumkin.

Shuningdek, ijaraga oluvchilar uchun iqtisodiy manfaatlar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- Ijara to'lovlarining tannarxida yotgan soliqqa tortiladigan foydaning kamayishi;
- ijaraga beruvchi balansida qoladigan ijara mulkining qisman mulk solig'idan

ozod qilinishi;

- ob'ektga tezashtirilgan amortizatsiya qo'llanganda, ijaraga oluvchida ishlab chiqarishni tezkor yangilash va qayta qurollantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Asosiy vositalarni ijaraga beruvchi - bu huquqiy shaxs bo'lib, mulkni ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan qabul qilib oluvchi va ijara shartnomasi asosida ijaraga oluvchiga beruvchi shaxsdir. Qonun bo'yicha ijaraga beruvchi huquqiy shaxs makomini olmagan tadbirkorlik sifatida qayd qilingan jismoniy shaxs yoki fuqaro bo'lishi ham mumkin.

Asosiy vositalarni ijaraga oluvchi - bu huquqiy shaxs yoki tadbirkor sifatida qayd qilingan hamda huquqiy shaxs maqomini olmagan fuqaro hisoblanadi. U o'z navbatida ijara shartnomasi bo'yicha ijara mulkidan vaqtinchalik foydalanish huquqini oladi. Ijaraga oluvchi bo'lib, ijara shartnomasida nazarda tutilgan yoki boshqa mulkni olishga hoxish bildirgan ixtiyoriy korxonalar qatnashishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda asosiy vositalar ijarasi hisobining maqsadi, foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq asosiy vositalarga oid moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlash hisoblanadi.

- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar asosiy vositalar ijarasi hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etish va yuritish;

- mavjud asosiy vositalarni me'yoriy hujjatlar asosida baholanishini ta'minlash;

- asosiy vositalarning xarakterini hisobda to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirish;

- boshqa aktivlardan asosiy vositalarni ajratilgan holda guruhlariga turkumlab, ularning hisobini yuritishni tashkil etish;

- asosiy vositalarning xolati va saqlanishini hisobga olish, turgan joyi (foydalanish joyi) bo'yicha mavjudligi va saqlanishini, ayrim xollarda ularning saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar bo'yicha nazorat qilish;

- asosiy vositalarga qilinadigan amortizatsiya ajratmalarini me'yoriy xujjatlarga asoslangan xolda hisobini yuritish;

- ta'mirlash bo'yicha xarajatlarni aniqlash va bu maqsadlar uchun ajratilgan vositalarning okilona ishlatilishini nazorat qilish;

- eskirgan, xo'jalik uchun oshikcha bo'lgan asosiy vositalarni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;

- hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar bo'yicha moliyaviy natijalarni to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hamda hisobda aks ettirish;

- mavjud asosiy vositalardan to'liq foydalanilishni ta'minlash va ularning oshikchasini aniqlash;

- ijara munosabatidagi asosiy vositalar bo'yicha ijara to'lovlarini o'z vaqtida rasmiylashtirish va to'lov amalga oshirilishini nazorat qilish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ijara munosabatlarning ishonchli buxgalteriya hisobi korxonalar tomonidan ijara ob'ektlaridan foydalanish natijalarini ob'ektiv aks ettirish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuni. Toshkent sh., 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son.
<https://lex.uz/uz/docs/-2931253>

2. Кудбиев Д. (2021). Методологические основы учета арендованных основных средств. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 119-124).

3. Кудбиев Д. (2022). Методологические основы аренды основных средств и их учет. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.

4. Исманов И. (2021). Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. Scienceweb academic papers collection.